

TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Meyliyev Sa'dulla Nazarovich, o'qituvchi
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

meliyevsadulla@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda kasb-hunarni egallashga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, kasbiy qiziqishlar, kasbiy motiv va motivatsiyani vujudga kelishi va ularni bilimlar bilan o'zaro ta'siri, bog'liqligi, talabaning xatti-harakati ichki regulyatsiyasi funksiyasi kasbga doir bilimlarni o'zlashtirishi, talaba shaxsida kasbiy xususiyatlar bilan bog'liq hulq-atvorning namoyon bo'lishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, talaba, mahorat, ko'nikma, motiv, motivatsiya, mashg'ulot.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalarini amalga oshirishdagi islohatlarni muvaffaqiyati ko'p jihatdan bo'lajak pedagog tarbiyachilarda kasbiy-malakalarni shakllantirishga bog'liq. "Endigi asosiy masala kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchning, o'z kasbiga mehrning ortib borishidir. Chunki tafakkur ozod bo'lmasa ong va shuur tazyiqdan qutulmay inson to'la ozod bo'lmaydi. Taraqqiyot mazmunini ma'naviy va kasbiy jihatdan yetuk kadrlar hal qiladi"- degan edi prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Oliy Majlisida so'zlagan ma'ruzasida[1]. Zero, mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalarini amalga oshirishdagi islohatlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga bog'liq. Kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga oid dastlabki ishlar umumiy o'rta ta'lim maktabi davrdanoq olib boriladi.

Maktab ostonasidan oliy o'quv yurtlariga qadam qo'ygan o'spirin, bu yerdagi, talab va qoidalarga bo'ysunishi bilan birga, odatda fan asoslari bo'yicha bilim ko'nikmalarini egallab boradi va shu asnodan tanlagan mutaxassisligi va kasbiy yo'nalishining mazmun mohiyatini yanada teranroq anglay boshlaydi [3]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talabalarda kasbiy bilim-ko'nikmalarni shakllantirish pedagogning kasbiy mahoratiga bevosita bog'liqdir. Chunki, o'qituvchining ta'limni turmush bilan bog'lashi, amaliyot bilan uyg'unlashtirishi, talabalarning qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini shakllantirishda ijobiy samara beradi[2]. Dastlabki kasbiy ko'nikmalar umumta'lim va kasbiy fanlardan saboq berish jarayonida shakllantirilib boriladi. Talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirishda hamkorlik ya'ni o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro birgalikdiga faoliyati yetakchi o'rin tutadi. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari kabi o'quv faoliyati talabalarni o'zlashtirishi zarur bo'lgan umumta'lim va kasbiy fan asoslari materiallarni mustaqil tushunishga olib keladi. Talabalar faoliyatining kasbiy ko'nikmalari bilan

uyg'unlashgan holda tobora muhim ahamiyat kasb etish tufayli fikr yuritish borgan sari faol mustaqil ijodiy xususiyatlar aks ettira boradi.

Hozirgi zamon psixologiya fani kasb-hunarni egallashga nisbatan ichki ehtiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs hulq-atvorini birmuncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Shuning bilan birga talabada barqaror ma'lum bir kasbga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qilinadi. Darhaqiqat ma'lum faoliyat turiga nisbatan barqaror qiziqishlar qo'zg'atuvchi turtki (kuch) sifatida kasbiy motivlarini vujudga keltiradi, va shu kasbga tegishli nazariy bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Talabada kasblarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi. Ana shu boisdan o'qituvchi tanlagan yo'nalishi va kasbga nisbatan talabalarda qiziqishni o'stirish tarafdori bo'lishi shart, chunki xuddi shuning negizida o'quv material va o'quv dasturini yuksak darajada o'zlashtirish imkoni yotadi.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash joizki, kasbga qiziqish motiv doirasida o'sadi, bilimlar bilan o'zaro ta'sir etadi, ular o'zaro uzviy bog'lanib ketadi. Motiv, motivatsiya talabani xatti-harakati ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xoxish - istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili bulib hisoblanadi. Motiv va motivatsiya faqat kasbga doir bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy ko'nikmalari va malakalarini egallash bilan cheklanib qolmasin, balki talaba shaxsining xulq-atvori, ya'ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo'lishini ham izohlashga xizmat qilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. O'zbekiston, T.: - 2001. – 264 b.
2. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O'zMU, 2003. 156-b
3. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
4. Maxmudova .D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogik faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.
5. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>
6. <http://t.me/dokument>